

**TALABALAR ORASIDA MA’NAVIY TAHDIDLARNING OLDINI
OLISHDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Sh.M. Mirzaxmedov

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalar orasida ma’naviy tahdidlarni oldini olishda vatanparvarlik tushunchalarini rivojlantirishga oid fikrlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda talabalar orasida ma’naviy tahdidlarning oldini olishda vatanparvarlik hissini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Yoshlar orasida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda axborot madaniyatining o‘rni muhimligi ta’kidlangan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviy tahdid, vatanparvarlik, talabalar, rivojlantirish, tarbiya, milliy, kamolot, axloq, axborot, madaniyat, qadriyatlar.

Dunyoda g‘oyaviy va siyosiy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda talabalar orasida ma’naviy tahdidlarni oldini olish va ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda talabalarning tarbiyasi bo‘yicha davlat dasturi, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyasi qabul qilingan, talabalarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak beriluvchi ko‘plab jamoatchilik asosidagi faxriylar tashkilotlari mavjud. O‘zbekistonda talabalar orasida ma’naviy tahdidlarni oldini olishning asosiy ko‘rsatkich hissi yuqori darajada rivojlangan. Bu – fidoyi, bilim va tajribasini vatanga baxshida etuvchi avlodni rivojlantirish hisoblanadi. O‘z navbatida mazkur fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlarini, rivojlantirish pedagogik texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois, hozirgi davrda mamlakatimizda milliy ma’naviy kamolotning genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi, vatanparvar talabalar fenomenining axloqiy mazmuni, o‘zgarish dinamikasi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Talabalarni orasida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda shaxs axborot madaniyati muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning mustaqilligi yillarida voyaga yetgan va kamol topgan shaxsni axborot madaniyati mustaqillik g‘oyasi bilan so‘zlaydigan va umuminsoniy qadryatlarga sodiqlik insonparvarlik ruhini tarannum etgan milliy g‘oyaning mahsuli bo‘ldi. Shaxsiy axborot madaniyati

milliy ong, erkinlik, tafakkur ozodligi ma’naviy ruh barkamolligi kabi hislatlarni o’zida ifodalab keldi. Shaxsning axborot madaniyati bamisoli-xalqning ma’naviy-mafkuraviy minbari sifatida namoyon bo’ladi. Shaxsning informatsion madaniyati mustaqillik vujudga keltirgan demokratiyaning amalda gavdalanishi hisoblanadi. Xususan, “Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo’lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko’zda tutadigan mafkuraviy, g’oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o’ylayman” [1].

Insoniyatning ko’p asrlik ilmiy-pedagogik tafakkurining mahsuli sifatida shakllangan ma’naviy merosi bugungi kunda talabalar tarbiyasida va shu jumladan, ular orasida ma’naviy tahidlarga qarshi kurashda muhim o’rin tutadi. Xususan, xalqimizning pedagogik tafakkur tarixida o’chmas iz qoldirgan va dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa bo’lib qo’shilgan ma’naviy qadriyatlar talabalar orasida ma’naviy tahdidlarning oldini olishda va vatanparvarlikni targ’ib qilishda tarbiyaviy-axloqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish jarayoni fuqoralik jamiyati rivojlangani sari muhim ahamiyat kasb etadigan ma’naviy qadriyatlardan biridir. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, ushbu faoliyatning provard natijasi yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini rivojlantirishdir. Ushbu tarbiyaviy jarayon ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo’lida fidoyilik namunalarini ko’rsatishga qodir bo’lgan shaxslarga xos fazilat hisoblanadi. Vatanga, xalqqa bo’lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg’usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o’rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi.

Hozirgi pedagogik muammolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg’ularini rivojlantirishning obyektiv shart-sharoitlari to’g’risida yanada chuqurroq o’ylash taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Negaki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrlarda yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish jamiyatni rivojlanishining asosiy negizi sifatida ko’rsatib o’tildi. Ular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

– insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishdan iboratdir [2].

Yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish ma’naviy xususiyat, pedagogik kategoriya bo‘lib, yosh avlod vakillari tomonidan predmet va hodisalarning boshqa predmet va hodisalardan farqini yoki ular bilan umumiyligini ifodalaydigan xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish jarayoni bir predmetning ikkinchi predmetga bo‘lgan ta’sirida, voqealarning o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish mazmun va mohiyatini o‘rganish natijasida talabalarning shakllanishida butun olam, tabiat va jamiyatda ayrimlik bilan umumiylikning bir-biriga bog‘langanligiga duch kelamiz. Shu ma’noda, har qanday fazilat kabi ma’naviyat ham muhabbat, burch, mas’uliyat, sadoqat, mardlik, jasorat, shafqat kabi tushunchalarga nisbatan xususiylikka hamda u mehr-oqibat, sodiqlik, ishonch kabi ayrim hodisalarning majmui, umumiy xossasi hamdir. Talabalarning ongida Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi kabi omillar asosida rivojlanadi.

Ma’lum bir mamlakat fuqarosi o‘sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo‘lmasligi ham mumkin. Chunki, bugungi kunda turli shart-sharoit taqozosi bilan boshqa bir mamlakatdan kelib qolib ketgan fuqarolar yoki o‘z tarixiy vatanidan olisda tug‘ilganlar ham mavjud. Talabalarning ko‘pchiligida “ma’naviyat” tushunchasi xayoliy bir qo‘msash, o‘tkinchi intilish tarzida ifodalanadi. Aslida esa bu ma’naviyatga muhabbat emas, balki, o‘z ajdodlarining ma’naviyatiga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi. Haqiqiy ma’naviyat esa, sharoit har ikki ma’naviyatdan birini tanlashni taqozo etganda, hozirgi ma’naviyatga nisbatan ma’naviy tahdidlarni mavjud ekani ayon bo‘ladi [5]. Shu ma’noda, ma’naviyat – asrlar davomida o‘z vatanida yashagan insonlar manfaatlarining birligini anglash, o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga hurmat, uning yutuqlari uchun g‘urur, ajdodlari, zamondoshlarining muvaffaqiyatsizliklari, falokatlari va xatolari uchun alamni his qilish, yangi, taraqqiy etuvchi narsalarni yaratishga bo‘lgan yuksak intilishning amalda ifodalanishidir.

Ma’naviyatning pedagogik mazmunini umumiylik va yakkalik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tashkil etadi. Jumladan, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish ma’naviyati talabalar ma’naviy dunyoqarashida, ezgu maqsadlarida, axloqiy intilishlarida muhim va barqaror xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyatning yuqori darajasi ijtimoiy tafakkurning jamoaviy kayfiyatlarida, hissiyotlarda, o‘z xalqiga nisbatan munosabatda, hayot tarzida, muhim qadriyatlar tizimida, boshqa xalqlar, ularning tili, tarixi, madaniyatiga bo‘lgan hurmatda namoyon bo‘ladi.

Yoshlarda vatanparvarlik fazilati burch va mas’uliyat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur. Ulardan vatan oldidagi burchga so‘zsiz bo‘ysunishni, o‘zini axloqiy jihatdan takomillashtirishni, vazifani ongli ravishda bajarishni talab etadi. Yoshlardan vatan oldidagi mas’uliyatni to‘liq bajarish, o‘z ma’naviyatini e‘zozlash bilan belgilanadi. Bu mas’uliyat, ayni paytda, o‘z ma’naviyatni ma’naviy tahditlardan himoya qilishni, tahdidlarga qarshi kurashishni, yurtni ravnaq toptirish va unga sadoqat bilan xizmat qilishdek ezgu fazilatlarni qamrab oladi. Burchni anglab yetish esa, faqat bilim, tajriba, ko‘nikma, malaka orqali ro‘y beradi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 13-14-betlar.

2. Atamurodov S. Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash (ijtimoiy falsafiy aspekt). Fals. fan. dok. diss. Avtor. – Toshkent, 1992. – 34 b.

3. Кант И. Критика способности суждения. – М.: Мысль, 2000. - 216 с.

4. Кулакова Л.И., Западов В.А., Радищев А.Н. Путешествие из Петербурга в Москву. Комментарий. – Ленинград: Белогор, 1994. – 116 с.

5. Murtozayeva M.M. Voyaga yetmaganlar orasida ma’naviy tahdidlarni oldini olishida vatanparvarlik hissini shakllantirish. Zamonaviy ta’lim. – №5, 2018. – B. 24-30.